DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-06-05-35 Pages: 331-337

Oriental Journal of Philology

ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:
http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about

# GRAMMATICAL TRANSFORMATIONS IN TRANSLATIONS OF ERNEST HEMINGWAY'S THE OLD MAN AND THE SEA

***Gulobod Turdieva***
*Researcher Samarkand State Institute of Foreign Languages*
*gulobodturdiyeva83@gmail.com*
*Samarkand, Uzbekistan*

## ABOUT ARTICLE

**Key words:** literary translation, grammatical transformation, comparative analysis, sentence splitting, grammatical substitution, addition, omission, The Old Man and the Sea.

**Received:** 21.09.26
**Accepted:** 22.09.26
**Published:** 23.09.26

**Abstract:** This article examines grammatical transformations in literary translation using passages from Ernest Hemingway's The Old Man and the Sea. The English original is compared with its Russian and Uzbek translations. Selected examples illustrate sentence splitting, grammatical substitution, addition, and omission. The article also considers cases in which grammatical changes occur alongside lexical shifts and antonymic translation. The comparison shows how changes in sentence structure can help convey the meaning of the original clearly in the target language.

# ERNEST HEMINGUEYNING "CHOL VA DENGIZ" ASARI TARJIMALARIDA GRAMMATIK TRANSFORMATSIYALAR

***Gulobod Turdieva***
*Samarqand davlat chet tillar instituti tadqiqotchisi*
*E-mail: gulobodturdiyeva83@gmail.com*
*Samarqand, O'zbekiston*

## MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** badiiy tarjima, grammatik transformatsiya, qiyosiy tahlil, gapni bo'laklarga ajratish, grammatik almashtirish, so'z qo'shish, tushirib qoldirish, "Chol va dengiz".

**Annotatsiya:** Maqolada Ernest Hemingueyning "Chol va dengiz" asaridan olingan parchalar asosida badiiy tarjimada qo'llanadigan grammatik transformatsiyalar tahlil qilinadi. Inglizcha asliyat ruscha va o'zbekcha tarjima variantlari bilan qiyoslanib, gapni bo'laklarga ajratish, grammatik almashtirish, so'z qo'shish va tushirib qoldirish usullari misollar orqali yoritiladi. Shuningdek, ayrim parchalarda grammatik

o‘zgarishlar leksik va antonimik tarjima usullari bilan birga qo‘llanishi ko‘rsatiladi. Tahlil tarjimada gap qurilishini o‘zgartirish asliyat mazmunini tushunarli ifodalashga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

# ГРАММАТИЧЕСКИЕ ТРАНСФОРМАЦИИ В ПЕРЕВОДАХ ПОВЕСТИ ЭРНЕСТА ХЕМИНГУЭЯ “СТАРИК И МОРЕ”

***Гулобод Турдиева***
*Исследователь Самаркандского государственного института иностранных языков*
*E-mail: gulobodturdiyeva83@gmail.com*
*Самарканд, Узбекистан*

## О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** художественный перевод, грамматическая трансформация, сопоставительный анализ, членение предложений, грамматическая замена, добавление, опущение, “Старик и море”.

**Аннотация:** В статье анализируются грамматические трансформации в художественном переводе на материале фрагментов повести Эрнеста Хемингуэя “Старик и море”. Английский оригинал сопоставляется с русским и узбекским вариантами перевода. На конкретных примерах рассматриваются членение предложений, грамматическая замена, добавление и опущение слов. Отмечается также сочетание грамматических изменений с лексическими преобразованиями и антонимическим переводом. Сопоставление показывает, что изменение структуры предложения помогает передать содержание оригинала в форме, понятной читателю перевода.

**Kirish.** Tarjima sana’tning eng nozik va nafis turlaridan biri hisoblanib, so‘zlarning o‘ta mukammal, puxtalik bilan qo‘llanishini talab etadi. So‘zlar tarjimada shunday mahorat bilan tanlanishi lozimki, tarjima barchaga birdek tushunarli bo‘lishi, asl jumlalarda ifodalangan ma’no tarjimada keltirilgan ma’no bilan muvofiq holda bo‘lishi zarur. Bunday muvofiqlikni ta’minlash uchun tarjima qilinayotgan gaplar so‘zma so‘z, to‘g‘ridan to‘gri tarjima qilinmaydi. Aksincha, agar biz asl manbani tarjima matniga to‘g‘ridan to‘gri tarjima qilaolganimizda edi, tarjimadanda osonroq ish bo‘lmagan bo‘lar edi. Tarjimaning eng nozik xususiyati ham shundadir aslida. Tarjima sana’tining eng muhim, murakkab omillaridan biri bu so‘zlarning transformatsiyalarga uchrashidir.

“Transformatsiya” – (lotincha) o‘zgartirish, almashtirish degan ma’noni anglatadi [1, 167]. Tarjimada transformatsiyalarning leksik, grammatik, stilistik turlari mavjud. Bizga ma’lumki, tarjima jarayonida bitta tushunchaga aynan bir tushunchaning to‘g‘ri kelishi kamdan kam

uchraydigan holatdir. Tarjima jarayonida bitta so‘zga bir so‘z, so‘z birikmasi yoki butun boshli gap to‘g‘ri kelishi mumkin. Shundan kelib chiqqan holda, ham so‘z birikmasi, ham gap bo‘lishi mumkin bo‘lgan holda so‘zlarning tarjimada transformatsiyalarga uchrashiga sabab bo‘adi. Tarjima jarayonida transformatsiyalardan foydalanish tillarning tipologik jihatdan bir biriga yaqin yoki uzoqligi, ularning qarindosh yoki qarindosh emaslik darajasiga bog‘liqdir [3, 101].

Tadqiqot metodologiyasi. Tarjima transformatsiyalari orasida tarjima transformatsiyasiga asos bo‘lib xizmat qiladigan so‘z qo‘shish, so‘zlarni tushirib qoldirish, umumlashtirish konkretlashtirish, kalkalash, tasviriy tarjima usullari asos bo‘lib xizmat qiladi. Tarjima transformatsiyalarining qaysi turini qo‘llashni tarjimon belgilaydi. Biroq tarjimonning o‘zi – “Men mana shu muayyan tarjima transformatsiyasidan foydalandim” – degan qat’iy bir fikrda bo‘la olmaydi. U faqatgina tarjima transformatsiyalarini intuitiv holda o‘z tajribasiga asoslanib tanlaydi. Nazariy jihatdan olib qaralsa, tarjima transformatsiyalarini alohida tahlil qilish mumkin. Biroq, amaliy jihatdan tarjima transformatsiyalari aralash holda keladi. Sof va muayyan transformatsiya konstruksiyalari tarjima qilib bo‘lmaydigan so‘zlarni tarjima qilishda, xos so‘zlarni tarjima qilishda xamda uslubiy jihatdan ta’sirchan xususiyatga ega bo‘lgan stilistik usullarni tarjima qilishda qo‘llaniladi [2, 123].

Tarjima jarayonida har doim leksik hamda grammatik transformatsiyalar orqali o‘zgarishlar kuzatiladi. Leksik va grammatik transformatsiyalardan foydalanishdan asosiy maqsad tarjimonga yuqori sifatli muqobillikka erishishdir. Endi tadqiqotimiz davomida mashhur yozuvchi Nobel mukofoti lauriyati Ernest Hemengueyning “ Chol va dengiz” asari asosida uch tilda ya’ni ingliz, rus hamda o‘zbek tillarida grammatik tahlil namunalarini amalga oshiramiz.

Gapni bo‘laklarga bo‘lib tarjima qilish grammatik transformatsiyaning bir turi hisoblanib, asliyatdagi ergashgan qo‘shma gaplarni alohida gaplar shaklida tarjima qilish yoki sodda gaplarni qo‘shma gap singari tarjima qilishni ko‘zda tutadi. Masalan,

He was an old man who fished alone in a skiff in the Gulf Stream and he had gone – four days now without taking a fish [5, 6].

Старик рыбачил один на своей лодке Гольфстриме. Вот уже восемьдесят четыре дня он ходил в море и не поймал ни одной рыбы [6, 1].

Chol qayiqda yolg‘iz o‘zi Golfstrimda baliq ovlardi. Dengizga chiqayotganiga mana sakson to‘rt kun ham to‘ldi, ammo hali bironta baliq tutganicha yo‘q [7, 4].

“Chol va Dengiz” asaridan olingan bu jumlada grammatik transformatsiyaning eng keng tarqalgan usullaridan biri gaplarni bo‘laklarga bo‘lib tarjima qilish usulidan foydalanilgan. Asliyat matnida and bog‘lovchisi bilan bog‘langan teng bog‘lovchili qo‘shma gap aloxida ikkita sodda gap shaklida tarjma qilingan. Agar mohir rus tarjimoni Gregorio Fuentosning amalga oshirgan tarjimalariga ham nazar tashlaydigan bo‘lsak aynan shunday tarjima usulidan foydlanganligining

guvohi bo‘lamiz. Grammatik transformatsiyaning bu turidan foydalanish har ikkala tarjimonga ham gaplarni sodda, aniq, tushunarli tarzda kitobxonga yetkazib berishga xizmat qilgan. Quyda qo‘shma gaplarni bo‘laklarga bo‘lib sodda gap shaklida hamda sodda gaplarni qo‘shma gap ko‘rinishida tarjima qilishga doir bir qancha misollar keltiriladi. Masalan,

Yes. I have yesterday’s paper and I will read the baseball [5, 12].

Ладно. У меня есть вчерашняя газета. Почитаю про бейсбол [6, 1].

Tarjimasi:

Mayli. Menda kechagi gazeta bor. Beysbol haqida o‘qib turaman [7, 13]. Asliyatda bu qo‘shma gap and teng bog‘lovchisi yordamida bog‘langan qo‘shma gap hisoblanadi. Tarjima matnida ikkita alohida sodda gap shaklida tarjima qilingan. Bundan tashqari tarjmon the aniq artiklini o‘rniga about predlogi ya’ni haqida yordamchi so‘zini qo‘llab kitobxonga Santiyagoning aynan beysbol o‘yini haqida o‘qishini ochib bera olgan. Rus tilidagi про predlogi ham aynan ingliz tilidagi about predlogiga to‘g‘ri keladi. Tarjimon Ibroxim G‘ofurov asarni bilvosita rus tilidan tarjima qilganligi sababli ham the aniq artikli aynan qaysi ma’noda kelayotganligini anglab yetgan holda tarjima qilgan. Tarjima jarayonida ko‘p hollarda ingliz tilidagi aniq va noaniq artikllarning tushib qolish holatlari, yordamchi so‘zlar, gumon olmoshlari yordamida tarjima qilish holatlari uchraydi.

There were only three boats in sight now and they showed very low and far inshore [5, 23].

Теперь, видны были только три лодки, отсюда казалось, что они совсем низко сидят в воде и почти не отошли от берега [6, 9].

Tarjimasi:

Uzoqda hozir faqat uchtagina qayiq ko‘zga tashlanardi. Bu yerdan qaraganda, ular suvdan zo‘rg‘a ko‘tarilib turganday tuyular, qirg‘oqdan hech bir uzoqlashmaganga o‘xshardi [7, 21].

Yuqorida keltirilgan gap ham teng bog‘lovchili qo‘shma gap hisoblanib, qo‘shma gaplarni sodda gaplarga bo‘lib tarjima qilish usuli yordamida tarjima qilingan. Bundan tashqari, jumlani tarjima qilishda tarjimon transformatsiyaning murakkab turlaridan biri bo‘lgan antonimik tarjima usulidan foydalangan. Chunki, kemalar deyarli qirg‘oqda turgandek edi deb tarjima qilinsa ham bo‘lar edi. Biroq, tarjimon jumlaning tasirchanligini oshirish maqsadida qarama qarshi ma’noli so‘zlardan foydalangan, ya’ni, qirg‘oqdan hech bir uzoqlashmaganga o‘xshardi tarzida jumlani nihoyatda chiroyli ko‘rinishda kitobxonga yetkazib bergan. Aslida, darak shaklidagi gapni inkor shakl bilan yoki aksincha berish antonimik tarjima deb ataladi.

Grammatik transformatsiyalarning yana bir keng tarqalgan turlaridan biri grammatik almashtirish hisoblanadi.

Eng ko‘p tarqalgan grammatik transformatsiya turi bu so‘z turkumlari almashinuvida kuzatiladi. Masalan,

But are you strong enough now for a truly big fish? [5, 7].

А сил у тебя хватит, если попадется очень большая рыба? [6, 3].

Tarjimasi:

Agar juda ham kattakon baliq duch kelib qolsa kuching yetarmikan [7, 6].

Yuqorida keltirilgan gapda sifat so‘z turkumi ot so‘z turkumi bilan almashtirilgan. Chunki, are you strong enough otli birikmasi kuching yetarmikan tarzida fe’lli birikma yordamida tarjima qilingan.

You study it and tell me when I come back [5, 9].

Почитай газету и расскажи мне, когда я вернусь [6, 4].

Tarjimasi:

Gazetani o‘qib tur, men qaytgach, gapirib berasan [7, 8].

Natija va muhokamalar. Bu qo‘shma gapda olmosh so‘z turkumini ot so‘z turkumi bilan almashtirgan holda tarjima qilingan. Bundan tashqari gapda leksik transformatsiyaning konkretlashtirish usulidan ham samarali foydalanilgan. Masalan, You study it bu gapda it olmoshi narsa predmetni anglatib kelayotgani ma’lum biroq, u gapda biroz mavhumlikni keltirib chiqarganligi sababli tarjimon aynan gazetani o‘qib tur deya aniq konkret tushuncha bilan tarjima qilgan. Bu esa yanada asarni tushunarli tarzda talqin etilishiga olib kelgan.

Bundan tashqari, grammatik transformatsiyalarning sintaktik moslashuv usuli ham mavjud bo‘lib, bunda sintaktik strukturani tarjima tilidagi shunday struktura bilan tarjima qilish tushuniladi. Lekin, bu o‘rinda strukturadagi komponentlar ayrim o‘zgarishlarga uchraydi. Masalan, artikllar, yordamchi so‘zlar, tushurib qoldiriladi, mustaqil so‘zlar esa ayrim morfologik o‘zgarishlar oladi. Quyida transformatsiyaning bu turini bir nechta misollar bilan tushuntirishga harakat qilamiz. Masalan,

“Eighty – five is a lucky number”, the old man said [5, 9].

Восемьдесят пять – счастливое число, – сказал старик [6, 4].

Tarjimasi:

“Sakson besh – baxt keltiruvchi raqam”, – dedi chol [7, 8].

Asliyat matnida bu gap ko‘chirma gapli qo‘shma gap shaklida berilgan. Agar biz aynan bu gapning rus hamda o‘zbek tillaridagi tarjimasiga nazar solsak, ikki tilda ham gap ko‘chirma gapli qo‘shma gap shakilda tarjima qilinib, gapning sintaktik qurilishi aynan bir xil ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Lekin, rus tilida ham o‘zbek tillarida ham artikl kategoriyasi mavjud bo‘maganligi sababli, har ikkala tarjimon ham tarjima matnidan a noaniq artikli hamda the aniq artikllarini bevosita tarjima matnidan tushurib qoldirishgan.

Qo‘shish grammatik transformatsiyaning shunday turiki, unda asliyat tilidagi grammatik va semantik komponentlarni tarjima tilida so‘z qo‘shish orqaligina qayta tiklash mumkin bo‘ladi [4, 107].

Masalan,

I remember everything from when we first went together [5, 9].

Я помню все с самого первого дня, когда ты взял меня в море [6, 4].

Tarjimasi:

Meni o‘zing bilan dengizga olib chiqqan kuningdan tortib, hammasi esimda [7, 8].

Quyidagi gap ergash gapli qo‘shma gap hisoblanib, undagi When we first went together gapi tarjima matnida meni o‘zing bilan dengizga olib chiqqan kuningdan tortib tarzida tarjima qilingan. Tarjima usuli so‘z qo‘shish bo‘lib dengizga olib chiqqan kuning birikmasi tarjimon tomonidan tarjima matniga qo‘shilgan holda tarjima qilingan. Agar dengizga olib chiqmoq birikmasi qo‘shilmaganda edi asar qaxramonlarining aynan qayerga birga borishganlari noaniqligicha qolib, gapning mazmuniga birmuncha putur yetkazgan bo‘lar edi.

Grammatik transformatsiyaning yana bir turi bu so‘zlarni tushirib qoldirish bo‘lib unda grammatik komponentlarning qisqartirilishi kuzatiladi. Masalan,

He was shivering with the morning cold [5, 9].

Его познабливало от утренней свежести [6, 4].

Tarjimasi:

Tonggi salqindan junjikdi [7, 7].

Bu gapda ega vazifasida kelgan he (u) olmoshi tushirib qoldirilgan. Ega vazifasida kelgan he olmoshi gapda tushirib qoldirilganiga qaramasdan tarjimada uning o‘rni sezilib turibdi. Gapda transformatsiyaning tushirib qoldirilish usulidan foydalanilishi matnni qisqa, lo‘nda tarzda tarjima qilish imkonini beradi.

Transformatsiyaning murakkab turlaridan biri antonimik tarjima usuli hisoblanadi. Antonimik tarjimada asliyatdagi tasdiq shakldagi fikr tarjima matnida inkor shaklda yoki aksincha qo‘llanishi mumkin.

“Keep the blanket around you”, the boy said [5, 14].

Не снимай одеяла,– сказал мальчик [6, 4].

Tarjimasi:

“Ko‘rpani yig‘ishtirma”,– dedi bola [7, 11].

Agar biz yuqorida berilgan gapni to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilsak, ko‘rpang joyida turaversin tarzida tarjima qilinadi biroq tarjima matni biroz uslubiy bo‘yoqdorligini hamda tasirchanligini yo‘qotadi. Shu sabali ham tarjimon ko‘rpani yig‘ishtirma deya ma’noni kuchaytirgan holda tarjima qilgan.

Nothing happened [5, 14].

Но ничего не получалось [6, 4].

Tarjimasi:

Hamma urinishlar zoyi ketdi [7, 11].

Asliyat matnida noting happened gapi hech narsa sodir bo‘lmadi tarzida ifodalangan. Lekin rus tilidagi tarjimada ham ingliz tilidagi asliyat matnida ham mana shunday bir xil ma’no ifodalanganligiga qaramasdan Ibroxim G‘ofurov ularga qarama qarshi tarjima metoddan foydalanib hamma urinishlar zoyi ketdi ko‘rinishida antonimik tarjimani qo‘llagan holda tarjimani amalga oshirgan va tarjima matnini tasirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bir tildagi badiiy asar matnini ikkinchi tildagi badiiy matnga aylantirish, o‘zgartirish (transformatsiya qilish), tarjima qilish matn kategoriyasini tashkil etuvchi elementlarni iloji boricha to‘liqroq saqlashni nazarda tutadi. Bunda mazmun birinchi o‘rinda turishi kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – T:. Fan, 2005 – 352 b
2. G‘ofurov I, Mo‘minov O. Tarjima nazariyasi. – T: Fan, 2012. – 216 b.
3. Комиссаров В.Н. Слова о переводе. – М:. Международные отношения. 1973. –211 с.
4. Рецкер Я.И. Задачи сопоставительного анализа переводов. – Л.: ЛГУ, 1962. – 72 с.
5. Hemingway E. The Old Man and The Sea. – Toshkent: Fan, 2016. – 95 p.
6. Фуентос Г. Старик и море. Хемингуэй Э. – М.: Правда, 1989.– 45 б.
7. Хеменгуэй Э. Чол ва денгиз. (русчадан Иброхим Ғофуров таржимаси). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2014.– 97 b.
8. http://dic.academic.ru/dic.nsf/enc3p/254006/РЕМАРКА
9. http://www.hi–edu.ru/ebooks2/xbook095/01/index.html
10. http://az.lib.ru/o/ostrowskij_a_n/text_0320.shtml
11. http://play–translate.livejournal.com/753.html